



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-68-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Mahalliy budget daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida budgetga hisoblangan va amalda to'langanligi hamda soliq qarzdorligi bo'yicha tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining hisoboti to'g'risida

Angor tumani bo'yicha 2023-yil I chorak uchun budget tushumlari 14,9 mlrd.so'mlik prognoz 28-mart holatiga 13,9 mlrd.so'mga yoki 93,4 foizga bajarilishi ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 mlrd.so'mga 112,5 foizga ko'p tushum tushirilishi ta'minlandi.

Shu jumladan, soliq turlari kesimida jismoniy shaxslarning daromad solig'iga 6,3 mlrd.so'mlik prognoz amalda 6,0 mlrd.so'mga yoki 95,0 foizga bajarilishi ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 mlrd.so'mga 115,3 foizga, jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solig'iga 2,9 mlrd.so'mlik prognoz amalda 2,9 mlrd.so'mga yoki 100 foizga ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 mlrd.so'mga 123,3 foizga, aylanmadan olinadigan soliqqa 1,7 mlrd.so'mlik prognoz amalda 1,0 mlrd.so'mga yoki 60,3 foizga bajarilishi ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 mlrd.so'mga 86,0 foizga tushum tushirilishi ta'minlandi.

Tuman bo'yicha 2023-yil I chorakda 1273 nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 287 nafarga ko'paygan. Angor tumani bo'yicha kameral soliq tekshiruv tuzilmalari tomonidan 2023-yil I chorak davomida 27 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. O'tkazilgan tekshiruv natijasida budgetiga qo'shimcha 173.0 mln.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan bo'lib, shundan 20.8 mln so'm undirilishi ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5252-sonli Qarori ijrosi yuzasidan Soliq hamkor mobil ilovasi orqali 2023-yil I chorak davomida fuqarolar tomonidan tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilib olgan mahsulotlariga onlayn nazorat kassa mashinasi cheki bermaslik, plastik kartasida savdo qilmaslik holatlari yuzasidan soliq hamkor mobil ilovasi orqali murojaat yo'llagan.

Ushbu fuqarolar tomonidan yo'llangan murojaatlar belgilangan tartibda

o‘rganilib chiqilib, 54 ta tadbirkorlik subyektlariga sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlari davomida fuqarolar tomonidan yo‘llagan murojaatlaridagi ko‘rsatilgan holatlar o‘z tasdig‘ini topishi oqibatida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan 222.5 mln.so‘m moliyaviy sanksiya (jarima) qo‘llanildi.

Angor tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘ining Mahalliy budjet daromadlari bajarilishi holati, qo‘shimcha rezervlarni aniqlash bo‘yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kesimida budjetga hisoblangan va amalda to‘langanligi hamda soliq qarzdorligi bo‘yicha hisobotini eshitib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr–mulohazalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Mahalliy budjet daromadlari bajarilishi holati, qo‘shimcha rezervlarni aniqlash bo‘yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kesimida budjetga hisoblangan va amalda to‘langanligi, ular bo‘yicha soliq qarzdorligi bo‘yicha Angor tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Sharipovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) birgalikda:

– tumanda budjet daromadlariga va mahalliy budjet daromadlari uchun 2023-yil I choragi hamda yil yakuni bo‘yicha belgilangan prognoz reja topshiriqlarining ortig‘i bilan bajarish choralari ko‘rish;

– tumanda 2023-yilda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo‘yish orqali mahalliy budjetning daromad bazasini tubdan mustahkamlash borishini tizimli davom ettirish;

– yangi kichik biznes subyektlarini tashkil etish, ularning to‘laqonli faoliyat yuritishlariga amaliy ko‘mak ko‘rsatish;

– tumanda faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning muammolarini o‘rganish va qayta faoliyat boshlashlariga ko‘maklashish;

– budjetning tasdiqlangan daromadlari rejasini bajarishini, qonunchilik doirasida xarajatlarini, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirilishini ta’minlab borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman moliya bo‘limi (S.Kuchkarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov)ga:

– tadbirkorlik faoliyatini yangitdan boshlagan tadbirkorlarga qonunda belgilangan jismoniy shaxslar tomonidan soliq olingan to‘lovlar (xizmatlar) qiymatining bir foizi ularning fiskal belgili cheklari soliq organlarining maxsus mobil ilovasi orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng qaytarish;

– chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarida naqd yoki bank kapitali, shu jumladan, kooperativ kartalar orqali sotib olingan to‘lovlar (xizmatlar) qiymatining bir qismi jismoniy shaxslarning bank kartalariga O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida qaytarish;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning tushumini ta‘minlash, shu jumladan tuman mahalliy budjeti daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash bo‘yicha moliya organlari, tashkilot va idoralar, soliq to‘lovchilar, soliq olinadigan baza, shuningdek, soliq olish obyektlari va soliq bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning to‘liq, o‘z nazoratiga olish;

– tumanda faoliyatini tugatgan tadbirkorlik subyektlarining muammolarini tanqidiy o‘rganib, ularning faoliyatini tiklash choralarini ko‘rib borsin.

4. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov)ga mas‘ul bo‘lgan idoralar bilan birgalikda:

– soliq to‘lovchilarning budjet oldidagi soliq qarzini qisqartirish hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda norasmiy ishlab kelayotgan (konvert usulida ish haqi olib kelayotgan) ishchilarining noqonuniy ish o‘rinlarini legallashtirish;

– tumanda o‘zini–o‘zi band qilgan shaxslar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish va ularning hisobotlarini yuritish;

– tumanda faoliyatini to‘xtatgan mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ko‘mak berish orqali ularning faoliyatini tiklash choralarini ko‘rish va fuqarolarning o‘zini-o‘zi band qilishni ta‘minlash;

– mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha sohalaridagi korxonalarining hisobotlarini kameral o‘rganish orqali budjetga qo‘shimcha mablag‘ tushirish;

– mahalliy budjetga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlarini har oyda so‘zsiz bajarib borilishini ta‘minlash;

– tumanda soliq hisobotlarini to‘liq tahlil qilgan holda tegishli chora–tadbirlar ko‘rib, budjetga qo‘shimcha tushumlarni ko‘paytirish borasidagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish topshirilsin.

5. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisobotlarini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish;
- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulki soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisobotlarini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;
- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;
- tumanda barcha turdagi tadbirkorlik subyektlarida terminallar o‘rnatilishini nazorat qilish, shu bilan birgalikda onlayn nazorat kassa mashinalarini ko‘paytirish va ularning ustidan nazorat o‘rnatish;
- yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish;
- jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid cheklarini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi jismoniy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot–tashviqot ishlarini olib borishga alohida e‘tibor qaratsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova), ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov)ga zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov